

SHIFO VA KASALLIK SEMASINI O'ZIDA AKS ETTIRGAN SHE'RIY ASARLAR LINGVOPOETIKASI

Shahnoza Islomova Iskandar qizi

Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi
va jurnalistika kafedrası tayanch doktoranti

E-mail: shaxnozaaislomavaa@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21254432>

Annotatsiya

Maqolada shifo xususiyatini aks ettirgan paremiologik birliklarning lingvistik tahlili haqida fikr yuritilib, tibbiy mazmundagi she'rlar, maqollar, folklor namunalarining lisoniy xususiyati ochib berilgan. Tibbiyot va tilshunoslik bag'rida shakllangan tibbiy lingvistika taraqqiyoti haqida fikr yuritilib, tibbiy she'riyatda qo'llangan leksemalarning lingvopoetik jihatlarini xususida so'z yuritiladi. Tibbiy she'riyatning lisoniy xususiyatlariga e'tibor qaratilib, undagi tibbiy birliklar lingvistik jihatdan tahlilga tortiladi.

Tayanch so'z va iboralar: tibbiy she'riyat, she'r terapiyasi, tibbiy birliklar, tibbiyot tili, tabobat tarixi, tibbiyot va tilshunoslik, tibbiyot va tarix, tibbiyot va adabiyot.

Zamonaviy tibbiyotning kelib chiqishi uzoq tarixiy davrlarni va turli qarashlarni o'z ichiga olib, turli kasalliklar, ularni davolash va oldini olish haqidagi bilimlar asosi qadimdan xalq ommasining tajriba va kuzatishlariga bog'liq bo'ladi. Tabobat kurtaklari odam paydo bo'lgan davrdan boshlab vujudga kelgan. "Tibbiy faoliyat — dastlabki odam bilan tengdosh", deb yozgan edi I.P. Pavlov [1] Tabobat tarixi inson sivilizatsiyasining boshlanishiga borib taqaladi, negaki, insonlar ibtidoiy davrlardan o'z sog'liklari uchun kurashib, turli davo vositalarini qo'llashgan. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan minglarcha yillik kuzatish va tajribalar evaziga tabiblik yuzaga kelgan.

Tabobatni urjuza (she'riy doston)larda bayon qilgan va o'zidan keyingi shoir-tabiblar ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan allomalardan biri Ibn Sino edi. U arab tilidagi urjuzalaridan tashqari forscha g'azal, qit'a va ruboiylarida ham tabobatga oid fikrlarini bayon qildi. Bundan tashqari Abu Rayhon Beruniy, Xusrav Dehlaviy, Sa'diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy asarlari tarkibida ham nazmiy tibbiyot namunalarini uchratishimiz mumkin.

Nodon tabib va bir dehqon hikoyati

Tunda biqin sanchib yotmadi dehqon,

Bir tabib ko'rdi-yu dedi o'shal on:

"Uzum bargin yedi shudir sababi,

Tonggacha yotmasa yo'qdir ajabi.

Badhazm yemishdan ko'ra yaxshiroq,

Kamon o'qi dilga sanchilsa mutloq.

Luqmadan bir sanchiq tushsa ichakka,

Nodon umri tamom chiqar puchakka."

Tabib o'lib qoldi tunda nogohon,

Qirq yil o'tar hamki tirik bu dehqon.

Bemor illatini quvolmas tabib

O'zni qanday ranjdan olsin qutqarib.(Sa'diy Sheroziy)[2]

Ulug' fors-tojik shoiri qalamiga mansub ushbu she'riy rivoyatda tibbiy nasihat keltirilishi bilan birga, nodon tabibning so'zdan unumli foydalanmasdan, noto'g'ri axborot yetkazganligi

haqida fikr yuritiladi. Sodda va ravon tilda bitilgan ushbu nazmiy hikoyat go'zal o'xshatishlar bilan birga tibbiy metaforik va frazeologik birliklar, shuningdek, xalq paremalari bilan bezatilgan (***Badhazm yemish, nodon umri, bemor illati***).

Sa'diy Sheroziyning ko'plab hikmatlari tib ilmiga bag'ishlangan bo'lib, nazmiy usulda bitilgan, yuqoridagi hikoyatga hamohang tarzda ulug' ijodkor salomatli haqida quyidagi baytlarni keltiradi:

*Agar bir a'zoga og'riq bo'lsa yor,
O'zga a'zolarida qolmaydi qaror.*

Yoki:

*Kam yeyish tabiat bo'lsa insonga,
Og'irlik yuz bersa yengil ko'chadi.
Kenglikda tanani parvarish qilsa,
Torlikda umrning shami o'chadi.
Ko'p yema, chiqmasin toshib bo'g'zingdan,
Oz yema, chiqmasin joning og'zingdan.*

Ushbu badiiy matnda tibbiy bilimlar obrazli, tasviriy vositalar orqali go'zal bayon etilgan. Me'yorda yeyish kerakligini, ortiqcha vazn ham inson tanasi uchun zararli ekanligi bayonini badiiy tasvir vositalari bilan bir qatorda tilimizni latofatini tarannum etgan frazeologik, metaforik, evfimik, pirezafik birliklardan foydalangan holda ochib bergan (***kam yeyish tabiati, yengil ko'chmoq, umrning shami, bo'g'zidan toshmoq, joni og'zidan chiqmoq***). Ushbu parchani o'qir ekanmiz Sa'diyning tabiblik ilmidan xabardor bo'lganiga guvoh bo'lamiz.

*Shifokor har erkim, vafolig' bo'ldi,
Qilgan har bir ishi safolig' bo'ldi,
Ochiq yuzi birla shirin so'zlari
Har qanday davodan shifolig' bo'ldi.
Sihat qo'rg'onining barbodi bo'lma,
Asab nozik, uning sayyodi bo'lma.
Ilmsiz shifokor go'yoki jallod
Kelgil, odamzodning jallodi bo'lma.
Qachonki, shifokor hoziq bo'lgusi,
So'zlari ma'naviy oziq bo'lgusi,
Shifokor fe'lida qo'pollik bo'lsa,
Bemorning joniga qoziq bo'lg'usi. [2]*

Yuqorida keltirilgan tabobat ilmi ufurib turgan ushbu she'riy pachalarda shifokorga xos xususiyatlarni, tibbiy o'g'itlarni tasvirlashda ijodkor so'zning kuchini ko'rsata olgan. Obrazlilik, tasviriylik, hissiy belgining kuchliligi berilayotgan axborotning tinglovchiga ta'sir kuchini ochiradi. Bandlar tarkibidagi ***salomatlikni—“Sihat qo'rg'oni”, ilmsiz shifokorni—“asabning sayyodi”, “odamzodning jallodi”, tabibning so'zlari qo'pol bo'lsa—“jonning qozig'i”*** kabi go'zal metaforalar, moslashuvli birikmalar bilan ifodalab, ushbu tibbiy birliklarga lingvistik ko'rk kiritib, axborotni qabul qiluvchiga hissiy ruh bag'ishlaydi.

Jaloliddin Rumi:

*Illatdan shu ko'yga tushgandi yurak,
Chunki yegan edi tun-u kun yemak.*

Yoki:

*Davolar asosi sanalur parhez,
Parhez qil, jon kuchin ko'rgil o'sha kez.
Parhezdir dori-yu, davo sarvari,
Qichish oshar, qutur kuchaygan sari.
Parhezdir dori-yu darmonlar boshi,
Hazm dori— yangi illat yo'ldoshi.
Mijoz tekshiruvchi tabib askari,
Yurakka boqadi tomir orqali.
Ovqat-u mevaning tabibi ular,
Ulardan hayvoniy ruh tetik bo'lar.*

Rumiy asarlaridan olinga ushbu badiiy parchada tibbiyotga oid fikrlar badiiy tasvir vositalari orqali bezatilib, anglatayotgan mazmun yanada teranlashgan. Badiiy matnda **“Parhez—dori-yu davo sarvari”** deyilgan. Bu tibbiy metaforik birlikda tibbiy perifrazani ham ko'rishimiz mumkin, ya'ni parhezni dori-yu darmon sarvari deb nutqqa ko'rk bag'ishlayapti. Agar bemorga parhez qilishning ta'siri barcha doridan ustun deyilsa, uning miyasida ushbu axborotga nisbatan ta'sir kuchi kamroq. Inson ongida ham obrazli, tasviriylik kuchli bo'lgan axborotlar tez ta'sir qiladi.

Tibbiyotda o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiga aloqador davo bilan bog'liq poetik aytimlar, paremiologik birliklar qadimiyligi, an'anaviyligi jihatidan ma'naviy qadriyatlarimiz tizimida alohida o'rin tutadi. Ular asrlar osha xalq repertuarida yashab kelmoqda. Milliy, diniy-axloqiy, falsafiy, tibbiy dunyoqarashning muhim qirralarini, xalqimizning ma'naviy-ruhiy dunyosini, urf-odatlarini va turmush tarzining asosiy tamoyillarini o'ziga singdirib olgan xalqning davolash bilan bog'liq folklor namunalari o'ziga xos ma'naviy va badiiy qirralari bilan ma'naviy jihatdan barkamol yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qaraymiz:

1

*Qaydakim, ilatning mavosi bordir,
Qidirgan topadi, shifosi bordur,
Muborak hadisda Payg'ambar dedi,
Har bitta kasalning davosi bordir.*

2

*Shifokor har elkim, davolig' bo'ldi,
Qilgan har bir ishi safolig' bo'ldi,
Ochiq yuzi birla shirin so'zlari,
Har qanday davodan shifolig' bo'ldi.*

3

*Hoziq tabib jonga habib bo'ladi,
Habib bo'lsa jonga tabib bo'ladi.
Nodon tabiblardan xudo asrasin,
Nafasi o'limga qarib bo'ladi. [Mahmud Hasaniy. 1001 tibbiy hikmat.]*

Yuqorida keltirilgan she'riy parchadan ayon bo'ladiki, Alloh taollo har bir kasalning davosi bilan birga yaratadi, jumlaning izohlash maqsadida payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. hadislaridan ham parcha keltiriladi. Albatta, bemor shifo topmog'i uchun shifokorlarning o'rni beqiyosdir. Shifokorlarimiz nafaqat, ilmi baki, shirin so'zli bo'lmog'i lozimligi, yaxshi shifokorning har bir so'zi davoga tengligi va aksincha ilmsiz va qo'pol, Allohning insonga

ne'mati bo'lmish, *eng kuchli giyoh hisoblanmish* so'zdan o'rinli foydalanmaydigan shifokor "dard ustiga chipqon" bo'lib, uning so'zlari bemorning dardiga oziq bo'lishi o'rniga bemor umriga qoziq bo'lishi yoritilgan.

Bugungi kunda jadal sur'atda rivojlanib borayotgan, nafaqat shifokor va tilshunoslar uchun, balki oddiy xalqqa foydali bo'lgan tibbiyot va tilshunoslik hamkorligini ayrim iboralarimiz etimologiyasida ham ko'rishimiz mumkin: tilimizdagi ayrim iboralarning etimologiyasi tibbiyotga borib taqaladi. Masalan, "sherdek yuragi bor" iborasi - eng qo'rqqonivor hisoblangan quyonning buyrakosti bezlari asosan, adrenalin ishlab chiqaradi, vahshiy hayvonlarniki esa noradrenalin ishlab chiqaradi. Bunaqa alomatlar odamlarda ham uchraydi. Masalan, yili sher bo'lgan odamda hissiyotli, asabiy taranglik vaqtida ko'p miqdorda noradrenalin ishlab chiqariladi. Bunaqa odamlar asabiy taranglik vaqtida o'zlarini bardam tutadilar. Ularda ichki imkoniyat zaxirasi kuchli bo'ladi. Bunaqa odamlarni "Sherdek yuragi bor" deyishadi.

O'zbek xalqimiz yaratuvchan, u so'zdan shunday o'rinli foydalanadiki, qudratli kalomning ifodasi nafaqat badiiy asarlarda o'z bo'yini namoyon etadi, balki insonning dardi, bemorligi, kasalligini ifodalovchi birliklarni ham quloqqa yoqimli eshitiladigan nomlar bilan ifodalaydi. Sog'lomlik, kasalliklarning davosi haqida shunday maqollar, hikmatlar, hikoyalar, frazeologik, evfemik birliklar borki, xalqimizning yaratuvchanligi, so'zning qudrati kishini hayratga soladi. Bu birliklarda xalqimiz tarixi, madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlar, dini aks etgan. Asrlar davomida xalq ishonch-e'tiqodi asosida yaratilib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalq tabobati bilan bog'liq maqollarida davo, shifo, kasalliklarning oldini olish, salomatlik, bemorlik bilan bog'liq purma'no fikrlari qisqa, aniq, lo'nda shaklda bayon etilgan.

Xulosa qilib aytish joizki, tibbiyot va she'riyat mushtarakligi klassik ijodkorlarimiz asarlarida, ulug' tabiblarimiz hikmatlarida, payg'ambarimiz hadislarida mavjud edi va qadimdan shifokor-u bemorlarimizga kasalliklarni yengish uchun yordam berish bilan birga, bashariyatga tib ilmini sodda va tushunarli qilib yetkashiz uchun xizmat qilgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. https://vaqt.ucoz.com/publ/tibbiyot/tibbiyotdagi_rivojlanish_davrlari/10-1-0-961
2. Маҳмуд.Ҳасанийю табобат дурдоналари. —Т.: 1990. -Б. 368.
3. Маҳмудхон Маҳмуд. 1001 тиббий ҳикмат.—Т.: 2013. 13-15 б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи"// 2019 йил, 21 октябрь// <http://uza.uz/oz/politics/>
5. Табобат хазинаси дурдоналаридан. Тошкент.ЎзССР-Медицина.1987. -Б.144
6. Абу Али ибн Сино. Уржуза ёки 1326 байт таҳлили. Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти-1999. -Б.160
7. Ҳамидулло Ҳикматиллоев. Шарқ табobati. Тошкент:Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти- 1994.
8. Alisher Navoiy. Hikmatlar. "O'zbekiston". Toshkent, 2011.